

LATIFALAR MATNLARIDA FONOSTILISTIK VOSITALARNING IFODALANISHI

Husaynova Mahliyo Ma'rufjon qizi

**TATU Farg'ona filiali O'zbek tili va
gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10032774>

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek milliy latifalari va so'z o'yinlarining fonostilistik xususiyatlari va o'ziga xos jihatlari haqida so'z boradi. Latifalarning matnini hosil qilishda tovushlarning ahamiyati va fonetik hodisalarga e'tibor qaratiladi. Latifalarning bosh qahramoni bo'lmish afandi obrazi bilan bog'liq fonostilistik hodisalar yordamida hosil qilingan misollar tahlil qilinadi va xulosalar beriladi.

Kalit so'zlar: latifa, fonostilistik hodisa, intonatsion bo'linish, inversiya, tovushlarni qavatlantirish.

Har qanday matn tarkibida bir qator lisoniy vosita va usullardan foydalanishni taqozo etadi. Latifalar ham badiiy matnning o'ziga xos bir janri sifatida ana shunday vosita va usullar yordamida shakllanadi. Bunday vositalar til sathining barcha materiallarida mavjud bo'lib, nutq jarayonida kontekst mazmunining talabiga ko'ra ulardan biri tanlab olinadi. Bunday vositalarga fonetik, leksik, sintaktik-stilistik birliklarni kiritishimiz mumkin.

Latifalar matni kundalik hayotda ikki yoki undan ortiq kishilarning so'zlashuvlari jarayonidagi nutqiy vaziyatda shakllanganligi uchun og'zaki nutq mahsuli sanaladi. Ma'lumki, oddiy kundalik hayotdagi so'zlashuv nutqida har doim ham yangidan matn yaratilmaydi. Har bir vaziyatga moslashgan holda ehtiyojga ko'ra turli matn turlaridan foydalaniladi. Ba'zan so'zlovchi boshidan o'tgan yoki o'z guvoh bo'lgan voqealarni kimgadir aytib beradi. Insonlar o'rtasidagi muloqot maqsadi va mazmuni shular bilangina chegaralanib qolmaydi. Inson hissiyotlarini, tuyg'ularini, hayajonlarini, azob va qayg'ularini ifodalash, shu orqali tinglovchi yoki kitobxonni ta'sirlantirishni istaydi. Ana shunday hollarda ba'zan turli tasviriy vositalarni vujudga keltiruvchi til birliklaridan foydalaniladi.

Ma'lumki, latifaga xos badiiy nutqning shakllanishida barcha til birliklariga xos fonetik, leksik, grammatik vositalar ham muayyan vazifani bajaradi. Bu o'rinda shuni unutmaslik kerakki, har qanday til birligining uslubiy imkoniyatlari kabi fonetik vositalarning semantik-stilistik imkoniyatlari ham matn doirasida oydinlashadi.

Badiiy matnni tahlil qilish jarayonida fonetik birliklarning emotsional-estetik xususiyatlariga alohida e'tibor qaratish kerak bo'ladi. She'riy matnda nutq tovushlarining estetik imkoniyatlari tez va qulay idrok etiladi. Chunki she'rda o'ziga xos jozibador ohang bo'ladi. Bu ohangdorlikka tovushlarni uslubiy qo'llash natijasida erishiladi. She'rda, asosan, alliteratsiya (undoshlar takrori), assonans (unlilar takori), geminatsiya (undoshlarni qavatlash) kabi fonetik usullardan foydalaniladi. Nasrda unlilarni cho'zish, undoshlarni qavatlash, tovushlarni takrorlash, so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilish, tovush ortttirish yoki tovush tushirish kabi fonetik usullar yordamida ekspressivlik ta'minlanadi. Latifalarda ham og'zaki nasrning bir ko'rinishi sifatida yuqorida keltirilgan fonetik vositalarning ayrimlaridan foydalanish mumkin bo'ladi. "Nima deb yig'laysan?" sarlavhali quyidagi latifada buning misolini ko'rishimiz mumkin:

Afandining tobi qochgan edi, u xotinidan so'rabdi:

– Onasi-i-i, basharti men o'li-i-b qolsam, nima deb yig'laysan?

– *Xohlaganingizni ayting, o'shani aytib yig'layman, – javob beribdi xotini. – Uzoqligimga qo'ymaga-a-an, yaqinligimga to'ymaga-a-an, voy to'ra-a-am, deb yig'lagin*¹.

Bu latifa matnidagi qahramon nutqida unlilarni cho'zish orqali o'z fikrini bayon etish holatini kuzatish mumkin. Bunday usulni yozma nutqda aynan keltirish imkoni bo'lmasa-da, yuqoridagi kabi fonografik vositalar yordamida bunga erishish mumkin.

“Fonostilistik o'yin”. Bu «fonopragmatik ta'sir» va «fonopragmatik hujum» strategiyasidan iborat bo'ladi. Fonostilistik o'yinda maqsadli tovush o'zgartirish jarayoni sodir etiladi va jarayon bellashuv tarzida kechadi. Nutqiy kombinatsiyalar natijasida tovush almashtirish, tovush orttirish, tovush tushirish, nutq tovushlari o'rnini almashtirish va aralash turdagi fonostilistik kombinatsiyalar amalga oshiriladi. Bunday vaziyatda tinglovchi nutq tovushlarining kontekstdagi ekspressiv imkoniyatlarini tez va to'g'ri faxmlab, munosib javob qaytarishi lozim bo'ladi.

Lisoniy o'yinning eng yorqin, yaqqol namoyon bo'ladigan jihatlaridan biri fonetik sathdir. Har bir lisoniy jamoa amaliyotida baholovchi komik ahamiyat kasb etgan fonetik nome'yoriylik(g'ayriodatiylik)lar majmuasi shakllangan. Insonlar nutqiy faoliyatida dimog'da gapirish, duduqlanish, «kavkazcha, yaxudiycha» va shu kabi aksentlar, fonetik o'ziga xosliklarning stereotipli majmualari mavjud. ²O'zbek latifalari matnlarining tahliliga tayanib, aytish mumkinki, komik vaziyat fonetik mexanizmlaridan foydalanish hisobiga yaratiladigan ko'plab latifalar mavjud ekan. Masalan: *Mahalla guzarida o'tirsak, bir oshnamiz rosa telefonini maqtadi, ichlarida g'aroyib narsalar juda ko'p ekan, shuni: Oshna, menga blutuz qivor desam, u menga qarab «Sharoiting bormi» desa, men 3–4 so'm pul bersam, u bo'lsa menga qarab «sharoit» degan programma deyapman desa bo'ladimi, nima balo, yangi programma chiqibdimi, desam, «share it» ekan, ozgina unlilarni kelishtirsa, o'zbekcha nomi chiqarkan, «sharoit», qoyil...* Latifa matnlarida kulgi paydo qilish uchun turli xil fonetik hodisalar bilan birga, unli va undosh tovushlarni cho'zish, qavatlantirish kabi usullardan ham keng foydalaniladi. Quyida unli tovushlarni cho'zish yordamida shakllangan latifa matnlariga oid misollarning tahlilini havola qilamiz.

- *Bir talaba yigit qassobning oldiga kelib: Aka, 500 so'mlik go'sht bering, debdi.*
- *Qassob hayro-o-o-on bo'lib, bir talabaga, bir go'shtga qarab:*
- *Uka, men bir narsa deyishga hayronman, shu- u-u o'zingga yoqqan joyidan bitta tishlab ketaver, - degan ekan.*

Mazkur latifalar matnida kulgi qo'zg'alishiga sabab bo'layotgan hodisa aynan unli tovushlarni cho'zish hisoblanadi. Bundan tashqari qassobning hozirjavoblighi ham kulgi uyg'otishga sabab bo'ladi. Ya'ni, 500 so'mlik go'shtning narxi bir tishlam xolos degan ma'noda javob beradi, natijada kulgili holat yuzaga keladi.

Bir o'g'ri odam bo'lgan ekan. Tovuq o'g'irlab kelibdi-da uni bozorga olib chiqib sotishdan qo'rqibdi va o'g'liga beribdi: - O'g'lim, mana shunibozorga olib chiqib sotib kelasan,- debdi. O'g'li ham sal axmoqroq bola ekan. O'g'irlangan tovuqni bozorda u ham o'g'irlatib qo'yibdi. Uyga shalpayi-i-i-i-ib qaytib kelsa otasi,- Ha, o'g'lim tovuqni qanchaga sotding,-desa. Qo'yavering, dada o'zini narxiga berivo-o-o-ordim degan ekan.

¹ Афанди латифалари WEBSPEKTR интернет иловаси.

²И.Рустамов.Кичик жанр матнларнинг прагматик когнитив ва миллий маданий моҳияти (Ўзбек ва инглиз латифалари мисолида) Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати.Тошкент – 2019 й 11 б.

Afandi Buxoro madrasasining birida tahsil davrida u qiroatga shu qadar berilib ketibdiki, hatto ta'til vaqtida uyga kelganda ham har bir so'zni qiroat bilan aytar, qorni ochganda:

- *Xotin-o-o-o, la choyu non-nono-o-o!-der edi. Bir kuni uning qiroatidan bezor bo'lgan xotini:*
- *Hech bo'lmasa, non bilan choyni qiroasiz aytsangiz bo'lmaydi? –dedi.*
- *Sening shu choy-u noningni deb qiroatimni buzaymu-u-u-u-u?!- degan ekan.*

Xalq orasida mashhur latifalardan birida ham so'zlarni noto'g'ri talaffuz qilish orqali kulgili vaziyat yaratilganligini ko'rish mumkin:

Afandining uchta qizi bo'lib, uchalasi ham oldinma-ketin bo'y yetgan edi. Ular o'zlariga yarasha chiroyli-yu, lekin tillari chuchuk edi. Onasi uchalasiga ham: "Agar sovchilar kelib qolishsa, zinhor gapira ko'rmanglar. Men o'zim gaplashaman", – deb tayinlabdi.

Bir kuni onalari uyda yo'qligida sovchilar kelib qolibdi. Ular qizlardan gap so'rashsa, hech qaysisi indamabdi. Hayron bo'lib, bu chiroyligina qizlardan ko'ngil uzolmay turishgn ekan, burchakdan bir sichqon chiqibdi-yu, uyning to'riga qarab qochibdi. Buni ko'rib turgan katta qiz beixtiyor gapirib yuboribdi:

– Voy, ana chichon, chichon!

O'rtancha qiz qiziqsiniib so'rabdi:

– Tani, tani?

Kenja qiz onasining gapini esidan chiqarmagan ekan, opalariga qarab:

– Hammang dapiysang ham, men dapiymayman, – debdi³.

Yuqoridagi misollardan ko'rinib turibdiki, latifalar matnidagi kulgili holatlarning yuzaga kelishida fonostlistik usullar ham asosiy o'rinni egallaydi.

References:

1. Maxkamova, D. (2023). PLANNING THE LESSON PROCESS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES. *Solution of social problems in management and economy*, 2(11), 55-59.
2. Baxtiyorovna, D. (2023, October). EMPOWERING INTELLECTUAL GROWTH: AI INTEGRATION IN ENGLISH LESSONS FOR STUDENTS'DEVELOPMENT. In *Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions"*.
3. Baxtiyorovna, D. (2023, October). EMPOWERING STUDENTS'INTELLECTUAL GROWTH: LEVERAGING SMART EDUCATION TECHNOLOGIES IN ENGLISH LANGUAGE EDUCATION. In *Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions"*.
4. Baxtiyorovna, D. (2023, October). UNLEASHING INTELLECTUAL POTENTIAL: TRANSFORMING ENGLISH LESSONS THROUGH SMART EDUCATION TECHNOLOGIES. In *Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions"*.
5. Rustamov, I., Xatamova, Z., Xamdamova, O., & Husaynova, T. M. (2023). EFFECTIVE ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION. *SCIENCE AND PEDAGOGY IN THE MODERN WORLD: PROBLEMS AND SOLUTIONS*, 1(9).
6. Kuchkarova, G., Rustamov, I., Xatamova, Z., Xamdamova, O., & Husaynova, M. (2023). USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *SCIENCE AND PEDAGOGY IN THE MODERN WORLD: PROBLEMS AND SOLUTIONS*, 1(9).

³Афанди латифалари WEBSPEKTR интернет иловаси.

7. Xatamova, Z., & Kuchkarova, G. (2023). LATIFALAR MATNINING FONOSTILISTIK XUSUSIYATLARI. *SCIENCE AND PEDAGOGY IN THE MODERN WORLD: PROBLEMS AND SOLUTIONS*, 1(9).
8. Хусайнова, М. (2021). КАСБ-ХУНАРГА ОИД ЛАТИФАЛАРНИНГ ПРАГМАТИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *Scientific journal of the Fergana State University*, (5), 50-50.
9. Rustamov, I., Xatamova, Z., Xamdamova, O., & Husaynova, T. M. (2023). EFFECTIVE ORGANIZATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION. *SCIENCE AND PEDAGOGY IN THE MODERN WORLD: PROBLEMS AND SOLUTIONS*, 1(9).
10. Kuchkarova, G., Rustamov, I., Xatamova, Z., Xamdamova, O., & Husaynova, M. (2023). USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *SCIENCE AND PEDAGOGY IN THE MODERN WORLD: PROBLEMS AND SOLUTIONS*, 1(9).
11. Xatamova, Z., & Kuchkarova, G. (2023). LATIFALAR MATNINING FONOSTILISTIK XUSUSIYATLARI. *SCIENCE AND PEDAGOGY IN THE MODERN WORLD: PROBLEMS AND SOLUTIONS*, 1(9).
12. Хусайнова, М. (2021). КАСБ-ХУНАРГА ОИД ЛАТИФАЛАРНИНГ ПРАГМАТИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *Scientific journal of the Fergana State University*, (5), 50-50.
13. Kuchkarova, G., Rustamov, I., Xatamova, Z., Xamdamova, O., & Husaynova, M. (2023). USING ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *SCIENCE AND PEDAGOGY IN THE MODERN WORLD: PROBLEMS AND SOLUTIONS*, 1(9).
14. Xatamova, Z., & Kuchkarova, G. (2023). LATIFALAR MATNINING FONOSTILISTIK XUSUSIYATLARI. *SCIENCE AND PEDAGOGY IN THE MODERN WORLD: PROBLEMS AND SOLUTIONS*, 1(9).
15. Хусайнова, М. (2021). КАСБ-ХУНАРГА ОИД ЛАТИФАЛАРНИНГ ПРАГМАТИК ХУСУСИЯТЛАРИ. *Scientific journal of the Fergana State University*, (5), 50-50.
16. DUSMATOV, H. H., & HUSANOVA, M. (2021). Some stylistic events expressed in Uzbek anecdotes. *THEORETICAL & APPLIED SCIENCE* Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 505-508.
17. Husaynova, M., Abduvaliyev, B., & Turdimatova, Q. B. (2023). RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING JAMIYATNI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI. Research and implementation.
18. Husaynova, M., & Rustamova, D. (2023). ZULFIYA ISROILOVA SHE'RIYATIDA UCHRAYDIGAN LISONIY HODISALAR. *IQRO*, 2 (1), 161-162.
19. Husaynova, M. (2022). NEOLOGIZMLARNING O'ZBEK LATIFALARI MATNIDAGI AHAMIYATI. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(6), 55-57.